Школа 21 учитель английского языка
город Самарканд Самаркандской области.

РАЗВИТИЕ НАВЫКА АУДИРОВАНИЯ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

АННОТАЦИЯ

В педагогике аудирование – это новый подход к учебному процессу, метод, стандартизирующий педагогический процесс на основе технических возможностей и мышления человека и дающий ожидаемый результат. В системе образования использование аудиотекстов эффективно для развития восприятия на слух.

Ключевые слова: Педагогическая технология, аудирование, родственная речь, устный пересказ, письменное повествование.

Gadayeva Dilnoza Ibadullayevna
School 21 English teacher
Samarkand city of Samarkand region.

DEVELOPING LISTENING SKILLS AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

ABSTRACT

In pedagogy, listening comprehension is a new approach to the educational process, a method that standardizes the pedagogical process on the basis of technical capabilities and human thinking

and gives the expected result. In the education system, the use of audio texts is effective in developing listening comprehension.

Keywords: Pedagogical technology, listening comprehension, related speech, oral retelling, written narration.

Respublikamizning taniqli olimlari ilmiy jihatdan asoslangan, ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan pedagogik texnologiyalarni yaratish hamda ularni ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llashga intilmoqdalar. Bular orasida J.G. Yo'ldoshev, S.A. Usmonov, R.H. Jo'rayev, Q.Y. Yo'ldoshev kabi ta'lim-tarbiya fidoyilarining nomlari alohida e'tiborga molikdir. «Pedagogik texnologiya» tushunchasining mohiyati nimada? «Texnologiya»- yunoncha so'z bo'lib, «techne»-mahorat, san'at, «logos»- tushuncha, o'rganish. demakdir.

Bu tushuncha XX asrda vujudga keldi va dastlab AQShda qo'llana boshladi. Vaqt o'tishi "ta'lim texnologiyasi" o'rniga "dasturlashtirilgan ta'lim" atamasidan foydalanila boshlandi. Shundan so'ng pedagogik texnologiya- loyihalashtirilgan ta'lim va aniq maqsadga qaratilgan o'quv jarayonini ifoda eta boshladi.

Pedagogik texnologiyani o'quv jarayonida qo'llashning zarurligini bunday mamlakatlar ichida birinchilardan bo'lib har tomonlama ilmiy asoslab bergan rossiyalik olim V.P. Bepalkoning fikricha, "Pedagogik texnologiya- o'qituvchining mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir"-deydi.

O'zbekistonlik metodist B.L. Farberman esa pedagogik texnologiyaga shunday ta'rif beradi: "Pedagogik texnologiya-ta'lim jarayoniga yangicha yondashuv bo'lib, pedagogikada ijtimoiy-muhandislik ongi ifodasidir. U pedagogik jarayonni texnika imkoniyatlari va insonning texnikaviy tafakkuri asosida standart holga soladigan, uning optimal loyihasini tuzib chiqish bilan bog'liq ijtimoiy hodisadir". Tizimli yondashish ta'sirida asta-sekinlik bilan pedagogik texnologiya mazmun-mohiyatiga aniqlik kiritila borildi. Rus olimasi N.F. Talizina esa uning mohiyatini «rejalashtirilgan o'quv maqsadiga erishishning oqilona usullarini aniqlashdir», deb tushuntirdi.

Dars jarayonida tinglab tushunishni rivojlantirish uchun foydalanilayotgan usullar bog'lanishli nutq, yozma bayon, og'zaki qayta hikoyalash va boshqalar.


O'quvchi nutqni tinglagan paytda asosiy vazifa: tanish leksik, grammatik, fonetik materiallar asosida o'ziga notanish mazmundagi nutqni tinglab, nutq vaziyatidan foydalanib, yangi ma'lumot olish, notanish mazmunli matnni tushunish vazifasi turadi.

Tinglab tushunishning eng qiyin turi radio va magnitofondan eshitiladigan monologik nutqni tinglab idrok etishdir. Ma'lum mavzu asosida tuzilgan mazmunli, davomli notanish monologik, diologik nutqni idrok etish, talqin qilish, malaka ko'nikmalarini shakllantiriladi, rivojlantiriladi. Tinglab tushuniladigan matnning o'quvchi yoki talabaga tanish bo'lmasligi lozim. O'quvchi yoki talaba matnni tinglab tushunayotganda matnga qarab, uni ko'rib turishi mumkin emas, chunki unda tinglab tushunish jarayoni sodir bo'lmaydi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda ta'lim jarayonida qo'llash uchun bir qancha tinglab tushunishni rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlari ishlab chiqilgan va ularning barchasidan keng foydalanilmoqda. Dars jarayonidagi tinglangan topshiriqlar orqali o'quvchilar mustaqil mushohada qilishga, o'z fikrlarini bayon qilishga, tinglangan hikoyani qaytadan ijodiy hikoyalash, qisqartirib hikoyalash va saralangan detallarini hikoya qilishga ko'nikma hosil qiladilar.


Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. H.T. Omonov, N.X. Xo'jayev, S.A. Madyarova, E.U. Eshchonov Pedagogik texnologiyalar va pedagogik. Toshkent, «IQTISOD-MOLIYA», 2009-yil
2. Ona tili o'qitish metodikasi. K. Qosimova va boshqalar. Toshkent, "Nosir" nashriyoti, 2009-yil
3. A.G'ulomov, B. Qobilova. Nutq o'stirish mashg'ulotlari. T.. 1995;
4. B. To'xliyev. Ifodali o'qish. T..2015;
5. Internet google.uz www.ziyo.net



Po`latova Niso
Magistr, Termiz davlat universiteti

O`ZBEK TILI MILLIY KORPUSIDA SINONIM SO`ZLARNI TENGLASH ALGORITMI

 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0850-2022-5-6>

ANNOTATSIYA

Til ma'naviy merosni saqlash va boyitishning asosiy vositasi, shu bois til millatning borligi hisoblanadi. Tillarni saqlab qolish milliy ma'naviyatni, butun bir millatni saqlab qolish ekanligi ziyolilar tomonidan e'tirof etilmoqda. Zero, asl ma'naviyat faqat milliy shakldagina mavjud bo'ladi. Ma'naviyat asosi va ifodalovchisi til.

Kalit so'zlar: milliy korpus, til, madaniyat, ma'naviyat, siyosat, farmon.

Полатова Нисо

Магистр, Термезский государственный университет

АЛГОРИТМ ПРИРАВНИВАНИЯ СЛОВ-СИНОНИМОВ В НАЦИОНАЛЬНОМ КОРПУСЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

АННОТАЦИЯ

Язык – это главное средство сохранения и обогащения духовного наследия, поэтому язык – это бытие нации. Интеллигенция признает, что сохранение языков — это сохранение национальной духовности, сохранение целой нации. Потому что истинная духовность существует только в национальной форме. Основой и выражением духовности является язык.

Ключевые слова: национальный корпус, язык, культура, духовность, политика, декрет.

Po`latova Niso

Master, Termez State University

ALGORITHM FOR EQUALIZATION OF SYNONYMOUS WORDS IN THE NATIONAL CORPUS OF UZBEK LANGUAGE

ABSTRACT

Language is the main means of preserving and enriching the spiritual heritage, so language is the existence of the nation. It is recognized by intellectuals that the preservation of languages is the preservation of national spirituality, the preservation of an entire nation. Because true spirituality exists only in the national form. The basis and expression of spirituality is language.

Keywords: national corps, language, culture, spirituality, politics, decree.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni bilan tasdiqlangan "2020–2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish

konsepsiyasi”da belgilangan davlat tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta’minlash ustuvor yo’nalishidagi o‘zbek tiliga oid barcha ilmiy, nazariy va amaliy ma’lumotlarni o‘zida jamlagan elektron ko‘rinishdagi o‘zbek tili milliy korpusini yaratish va o‘zbek tilini internet jahon axborot tarmog‘ida ommalashtirish, unda munosib o‘rin egallashini ta’minlash vazifalarining ko‘rsatib berilishi biz mutaxassislariga katta mas’uliyat yukladi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari tilning funksional imkoniyatlaridan foydalanish borasida benihoya imkoniyatlar eshigini ochdi. Kompyuter tarjimai, avtomatik tahrir va tahlil, yozma matnni ovozashtiruvchi nutq sintezatorlari, og‘zaki nutqni yozma matnga aylantiruvchi nutqni tanish dasturlari, elektron lug‘atlar, lingvistik mobil ilovalar, tezaurus(til xazinas)lar va til ontologiyasi fikrimizning dalilidir. Ayniqsa, zamonaviy elektron lug‘atlar tuzish va undan foydalanish madaniyatini shakllantirish til imkoniyatini egallashda samarador ekanligi o‘z isbotini topgan. Xususan, tilning imkoniyatini namoyon qilish va egallash borasida dunyo miqyosida tez sur‘atlarda yaratilayotgan til korpuslarining roli beqiyos.

Til korpuslari — til bo‘yicha tadqiqot va amaliy topshiriqlar yechimi uchun zarur ish quroli. U oddiy elektron kutubxonadan farqlanadi. Elektron kutubxonaning maqsadi — xalqning ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy, iqtisodiy hayotini aks ettiruvchi badiiy va publitsistik asarlarni nisbatan to‘liq qamrab olish. Elektron kutubxona matnlari til nuqtayi nazaridan ishlov berilmaganligi sababli tadqiqotlar uchun noqulaylik tug‘diradi. Chunki elektron kutubxona ilmiy tadqiqot materiali bazasini tayyorlash maqsadida tuzilmaydi, balki milliy-ma’naviy merosni to‘plashni maqsad qilgan bo‘ladi. Til korpusi esa elektron kutubxonadan farqli o‘laroq, tilni o‘rganish va tadqiq qilish uchun foydali va qiziqarli matnlarni to‘plashni nazarda tutadi.

Milliy til korpusi — til birliklarining xususiyatlarini aniqlash maqsadida elektron qidiruv imkoniyati mavjud tizim, tabiiy tilning raqamlashgan yozma va og‘zaki matnlar jamlanmasi. Milliy korpus — til birligining o‘zgarishi, eskirishi, yangilarining paydo bo‘lishi, ma’nosining kengayishi va torayishi, yangi iboralarning paydo bo‘lishini kuzatish, an’anaviy va zamonaviy lug‘atlar tuzishda keng imkoniyatli dasturlashtirilgan tizim. Korpusdagi milliy so‘zi nafaqat tilning, balki korpus tuzilishi va tarkibining ham o‘ziga xosligini anglatadi. Milliy korpusning boshqa tur til korpuslaridan farqi ta’limiy korpus, mualliflik korpusi, poetik matnlar korpusi, ilmiy va rasmiy matnlar korpusi, og‘zaki matnlar, badiiy matnlar va gazetalar hamda dialektlar korpusi kabi ichki korpuslarni o‘z tarkibiga qamrab olganligi bilan belgilanadi.

Undan lingvistlar, leksikograflar, kompyuter lingvistlari, dasturchilar, muharrirlar, tarjimonlar, jurnalistlar, noshirlar, olimlar, o‘qituvchilar, ta’lim oluvchilar va boshqa har qanday soha mutaxassisi keng foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Korpusiz na nazariy, na amaliy filologiya taraqqiy etadi.

Foydalanishda deyarli kasbiy tabaqalanishga yo‘l qo‘ymaydigan til korpuslari barcha fan-soha vakillarini birday qiziqtirishi tabiiy. Ayniqsa, ona tili va chet tillarini o‘qitish va o‘rganish borasida korpuslarning ahamiyati beqiyos. Bugungi kunda dunyo miqyosida til o‘rgatish tizimi korpuslarga yo‘naltirilayotganligi ham fikrimizning dalili. Shuning uchun ham ta’lim korpusi, sheva matnlari korpusi, mualliflik korpusi, poetik matnlar korpusi, og‘zaki, ilmiy, rasmiy matnlar korpusi, gazeta matnlari korpusi kabi qator mikrokorpuslarning tuzilayotganligi ahamiyatli.

— Bu borada ancha ishlar qilinayotganligidan xabarimiz bor. Ommaviy axborot vositalari, internet saytlari, ijtimoiy tarmoqlarda ham xabarlar berib borilmoqda. Botir aka, korpusning dasturiy tomoni mas’uliyati Sizning jamoangiz zimmasida. Albatta, bu katta kuchni talab qiladi. Shu kungacha bu borada qancha ko‘lamdagi ishlar amalga oshirildi?

Ko‘p yillik talab va ehtiyoj asosida ona tilimizni avaylab-asrash, boyitish, undan amaliy foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida fidoyi olimlar tashabbusi bilan o‘zbek tili milliy korpusining yaratilishiga erishildi. Bu borada universitetimiz rektori Shuhrat Sirojiddinovning qo‘llab-quvvatlashlari, ijodiy sharoit va texnik imkoniyatlar eshigini ochib bergani e’tirofga loyiq. Shu o‘rinda, “O‘zbek tilining ta’limiy korpusini yaratish” amaliy loyihasi zamirida ta’lim korpusining yaratilishi ham ta’lim fidoyilari uchun benazir imkoniyat eshigini ochadi. O‘zbek milliy korpusini yaratish maqsadida shu kunga qadar 10 ga yaqin ilmiy ish himoyasi amalga oshirildi. Bugungi kunda bu borada kompyuter

va korpus tilshunosligi va amaliy tilshunosligi sohalarini rivojlantirish, milliy korpus va boshqa tur til korpuslarini yaratish maqsadida magistrlik dissertatsiyalari, fan nomzodi va fan doktorligi bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Toma-toma ko'l bo'lur deganlaridek, bugun ushbu tadqiqotlarning amaliy natijasi sifatida milliy korpus yuzaga keldi. Ushbu mas'uliyatli va sermashaqqat jarayonda ToshDO'TAU, BuxDU, QarDU, TerDU, NavDPI kabi oliy ta'lim muassasalaridagi 100 ga yaqin mutaxassislarning birdam mehnat qilganligini alohida ta'kidlash joiz. Bugun ToshDO'TAU mutaxassislarni birlashtira oldi, ularni bir maqsad yo'lida jamladi. Ta'limiy korpus ona tili hamda xorijiy tilni o'rganishda birdek ahamiyatli. Tilni o'rgatishda lug'at boyligining ulkanligini ko'rsata olish, so'zning qo'llanish imkoniyatini u yoki bu grammatik qurilma orqali tushuntirish uchun misollar massivini ko'rsatishda korpus juda qo'l keladi. Til ta'limi uchun muhim bo'lgan misolning doimiy yangilanib borishi, buni aks ettirib turish xususiyati hamda imkoniyati faqat korpusda mavjud. O'qituvchi yangi, ishonarli, cheksiz hamda xilma-xil misollarni shu yerdan topa oladi, topshiriq, mashqlarni belgilashda qiynalmaydi, bir necha daqiqada mavzu bo'yicha yangi-yangi misollardan iborat topshiriqlarni tayyorlay oladi.

Til birligini qidirish kerak bo'lsa, bunday dasturiy ta'minot, ya'ni korpus tadqiqotchi yoki foydalanuvchiga juda katta yordam beradi. Ilgari tadqiqotchi o'z ishi uchun misolni topish, ularni kartotekaga ko'chirish (kompyuter texnologiyalari rivojlanishidan oldingi davrda)ga oylab, ba'zan yillab vaqt sarflagan bo'lsa, bugun dunyo til korpuslari yordamida sanoqli daqiqada yuzlab misol topishga, tahliliy natijalarni olishga va ular ustida ishlash imkoniga ega bo'ldi. Maxsus qidiruv tizimi korpusdan ma'lumot olishga mo'ljallangan bir qancha dasturdan iborat, u statistik axborot va qidiruv natijasini foydalanuvchiga qulay shaklda taqdim eta oladi. Tilda qanday jarayon kechayotganligini aniq tasavvur qilish uchun korpus qamrovini yanada kengaytirish, nafaqat yozma nutq, balki og'zaki nutq materialidan ham foydalanish maqsadga muvofiq. Bunday korpus yordamida taraqqiyot natijasida tilda sodir bo'lgan va kutilayotgan o'zgarish haqida aniq xulosa chiqarish mumkin. Tilshunoslikka oid tadqiqotda fakt bilan ish ko'riladigan hollarda material yig'ilishi, sistemaga solinishi lozim. Bunday katta hajmli ishni bajarishda korpus vaqt va mehnatni tejaydigan ish quroli vazifasini bajaradi. U texnik jarayonni tezlashtiruvchi vosita bo'libgina qolmay, muayyan tilning zamonaviy shakliga xos axborot tizimi ham bo'lib, kutilmagan savolga javob bera oladigan, til hodisasi bilan shug'ullanadigan soha oldiga avval ko'rilmagan dolzarb muammolarni qo'ya oladigan tizim.

Korpuslar turli maqsadlarda turli sohalar uchun tuzilishi mumkin. Jumladan, og'zaki yoki yozma matnlar, bir tilli yoki ko'p tilli, uslubiga ko'ra badiiy, publitsistik, folklor, bazasi o'zgaruvchan yoki o'zgarmas,

— Milliy korpuslar mushtarak va xususiy belgilarga ega. O'zbek tilining korpusi ham milliy shart-sharoitlardan kelib chiqadigan xususiyatlarga ega bo'lishi kerak edi. Korpusni yaratish konsepsiyasida bu puxta ishlab chiqildi va rejalashtirildi. O'zbek tili milliy korpusining tuzilishi va tarkibi O'zbek tili milliy korpusi korpus interfeysi, qidiruv tizimi, 75 mln.ga yaqin so'z-shakl, 1 mlndan ortiq matnlar bazasi va 15 elektron lug'at manbasidan iborat. Shuningdek, o'zbek tili milliy korpusi saytning birinchi sahifasida korpus va uning tuzuvchilari haqida asosiy ma'lumot, o'ng tomondagi menyuda istalgan sahifaga o'tish imkoniyati mavjud. Korpus menyusi to'rt qismdan iborat. Bosh sahifa, saytning qidiruv oynasi, matn haqida unga biriktirilgan qo'shimcha ma'lumot ilovasi, qidiruv uchun til birliklariga izoh yozish parametrlari, elektron leksikografik manbalar tavsifi, oxirgi blok korpus tuzuvchilari jamoasi, foydalanilgan dastur, matnlarning mualliflik huquqi haqida to'liq ma'lumotlar bazasidan tashkil topdi. Korpus bo'yicha qidiruv foydalanuvchiga quyidagilarni aniqlash imkonini beradi:

- 1) muayyan so'zning barcha shakllari misollar massivi bilan;
- 2) misollarning qaysi manbadan olinganligini ko'rish;
- 3) so'zning filologik lug'atlardagi mohiyati va izohini;
- 4) qidiruvga berilgan so'z bilan uning o'ng va chap tomonidan birikish imkoniyatiga ega so'zlar ro'yxatini;
- 5) u yoki bu muallifning ayni so'zdan foydalanish chastotasi yoki statistikasini
- 6) so'zning o'z va ko'chma ma'nolarini

7) soʻz qoʻllanishining yashirin modeli (imkoniyati)ni;

8) til taraqqiyotining turli davrida qoʻllanish holatini.

Lugʻatlarni tuzish uchun korpus katta hajmli manba vazifasini oʻtaydi. Vaqt oʻtishi bilan korpus kuchli informatsion resursga aylanadi. Korpus asosida kompyuter yordamida lugʻatlar avvalgiga nisbatan tezlik bilan tuziladi va qayta ishlanadi. Shu yoʻl bilan ish boshlanishidan tugash jarayonigacha (nashrgacha) tilni aks ettirib turadi, lugʻat maqolasi “eskirish”ga ulgurmaydi. Tilning zamonaviy holatini aks ettiruvchi korpus turli davrlarda yashab ijod etgan ijodkorlarning mualliflik korpuslari uchun asos boʻlib xizmat qiladi. Soʻzning qoʻllanish davri va chastotasini aniqlab berishi bilan korpusning soʻzshunoslik sohasidagi ahamiyati namoyon boʻladi. Korpus lingvistikasining keyingi taraqqiyot bosqichida statistik tadqiq metodi kompyuter tarjimasini, nutqni sintezlash va tanish, orfografik tekshiruv kabi lingvistik amallarni bajarishda qoʻl kela boshladi. Rus va Yevropa tilshunosligida til boʻyicha qilinadigan barcha tadqiqotlarning korpusga asoslanishi odatiy holga aylangan va hatto baʼzi tadqiqotlarda majburiy ham sanaladi. Til oʻrganayotgan oʻquvchi yoki uning biror jihatini tadqiq etayotgan kishining bugungi kunda lugʻatga boʻlgan ehtiyoji korpusga koʻchishi shubhasiz.

Terminologiya sohasini rivojlantirishda, bazadagi millionlab turli sohalarga oid matnlardan muayyan soha terminologiyasi shakllantiriladi.

Masalan, ingliz < lotin tillaridan oʻzlashgan injiniring atamasining bank-moliya, qurilish, axborot texnologiyalari, xalqaro munosabatlardagi tushunchalarini birgina korpusga qidiruv berish natijasida aniqlash mumkin boʻladi. Gap qurilishini oʻrganishdagi ahamiyati tilning jonli qurilishini, soʻzlarning oʻzaro birikish imkoniyatini tahlil qila olishida koʻrinadi. Anʼanaviy tilshunoslikdagi misolni olishda badiiy asar tiliga tayanish tajribasidan koʻra korpusga tayanish misolning bugungi kun uchun ham ishonarliligini taʼminlaydi.

Tarjima dasturlarini yaratishda parallel korpuslar katta ahamiyatga ega. Ikki yoki koʻp tillardagi matnlarning parallel tarjima bazasi yordamida tarjimon lugʻatlari, avtomatik tarjima dasturlarining lingvistik bazalarini shakllantirishda yirik resurs vazifasini bajaradi.


Uslubiyatni oʻrganishda matnning uslubiy oʻziga xosligini tahlil etishda ham korpusga tayanish mumkin. Bu amaliyotni bajarishda matnlarning statistik holati tahlili(matndagi jumlaning uzunligi, bir soʻzning boshqa soʻz bilan birikish holatining doimiy yoki noodatiyligi)ni aniqlashtiradi. Bunday usulda korpus yordamida yozma nutq bilan birga ogʻzaki nutqni ham oʻrganish mumkin boʻladi. Masalan, rasmiy ish qogʻozlari matnida shartnoma boʻyicha talablar shakli maʼqulmi yoki shartnoma talablari konstruksiyasi toʻgʻrimi? Korpus bu tarzda berilgan savolga javob sifatida sanoqli daqiqalarda qaysi shakl koʻproq qoʻllanishini aniqlab beradi va biz rasmiy matnda mazkur birikmaning toʻgʻri ifodasini yozaveramiz. Taʼkidlash joizki, aynan hozirgi adabiy til uslubini shakllantirish uchun ham mutaxassisga zamonaviy matnlar majmuasi zarur boʻladi.

Korpus bu — lingvodidaktika, u ona tili va xorijiy tilni oʻrganishda birdek ahamiyatli. Bazaning jonli nutq, zamonaviy OAV materiali, badiiy adabiyot soʻzligi, mumtoz nasr namunasi, turli mavzu va janrdagi matnlar bilan doimiy boyitilishi natijasida korpus taʼlimda yoʻnaltirib oʻqitish imkoniyatini ham ochadi. Koʻpincha qayta-qayta nashr etilgan darslikda misollar eskiligicha qolib ketadi va axborot bilan shiddatli yangilanib borayotgan bugungi kun uchun mavzu eskiradi, oʻquvchi bilimni davr bilan hamohang oʻzlashtirmaydi. Oʻquvchida korpusdan unumli foydalanish koʻnikmasi shakllantirilsa, u oʻz nutqida yoʻl qoʻyilayotgan xatolar va gʻaliz ifodalarni bartaraf eta oladi. Til korpusiga eng koʻp ehtiyoj sezuvchi mutaxassis – bu filologik dasturlar uchun lingvistik taʼminotni yaratish uchun matnni avtomatik qayta ishlaydigan dasturchidir. Chunki u tabiiy til bilan ish koʻradi hamda ushbu tilda yozilgan barcha matnlar strukturasi mukammalroq “tushunishi”, his etishi lozim boʻladi. Til korpusiga ehtiyoj sezadigan mutaxassislardan yana biri – kundalik ish jarayonida yozma va ogʻzaki nutq jozibasiga tez-tez murojaat etuvchilar: gazeta va jurnal muharriri, jurnalist, radio va televideniye xodimlari. Chunki bu mutaxassislar maʼlum bir soʻz, ibora yoki gapning qoʻllanish holati, darajasi, kim, qachon ilk marta bu gapni qoʻllaganligi, qanday uslub uchun xoslanishini bilishga grammatika bilan shugʻullanuvchi olimdan koʻra koʻproq ehtiyoj sezadi. Korpusdan tashqari hech qanday axborot banki bu kabi savollarga zudlik bilan javob berishi mumkin emas. Shuning uchun korpuslar jurnalist, muxbir, muharrir, oʻqituvchi hamda dasturchi uchun maxsus yaratilgan,

deyish mumkin. Til ta'limi hayotdan uzilib qolmasligi uchun muntazam ravishda matnlar bazasi yangilanib boriladigan korpusga tayanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Milliy til korpusi — Ona tilimizning jahonga yuz tutishiga erishish, milliy ma'naviyatni takomillashtirish va yuksaltirishning ham asosiy vositalaridan biri.


Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. www.ziyonet.uz
2. www.uzbekphilology.uz
3. Ma`rifat gazetasi davra suhbati, Husan Nishonov, 15.08.2021
4. Alekseeva, M. V (2001). Scientific text as polylogue (Monograph). Moscow: Signal.
5. Alkebayeva, D.A. (2014). Pragma-stylistics of the Kazakh language. Almaty: Kazakh University Baranov, A.N., Kazakevich, E. G. (1991).
6. Parliamentary debates: traditions and innovations, Modern political language (from ritual to metaphor (pp.63-70). Moscow: Znanie. \
7. Political discourse as subject of political philology, Political science. Political discourse: History and modern researches (pp.32-43). Moscow: INION of the Russian Academy of Sciences.



Sattorova Barno
Teacher, Termez State University

THE ROLE OF LITERATURE IN LANGUAGE LESSONS

 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0850-2022-5-7>

ABSTRACT

The English language teaching tradition has been subject to tremendous change, especially throughout the twentieth century. Perhaps more than any other discipline, this tradition has been practiced, in various adaptations, in language classrooms all around the world for centuries.

Keywords. Literature, speaking, teaching, crucial, Extensive, beneficial complement, colorful.

Сатторова Барно

Преподаватель, Термезский государственный университет

РОЛЬ ЛИТЕРАТУРЫ НА УРОКАХ ЯЗЫКА

АННОТАЦИЯ

Традиция преподавания английского языка претерпела огромные изменения, особенно на протяжении двадцатого века. Возможно, больше, чем любая другая дисциплина, эта традиция практиковалась в различных вариантах адаптации в языковых классах по всему миру на протяжении веков.

Ключевые слова. Литература, разговорная, учебная, решающая, Обширная, выгодно дополняющая, красочная.

Sattorova Barno

O'qituvchi, Termiz davlat universiteti

TIL DARSLARIDA ADABIYOTNING O'RNI

ANNOTATSIYA

Ingliz tilini o'qitish an'analari, ayniqsa, yigirmanchi asr davomida juda katta o'zgarishlarga duch keldi. Ehtimol, har qanday intizomga qaraganda bu an'ana asrlar davomida butun dunyo bo'ylab turli sinflarda, turli xil moslashuvlarda qo'llanilgan.

Kalit so'zlar: Adabiyot, so'zlashuv, tarbiyaviy, hal qiluvchi, Keng ko'lamlı, foydali to'ldiruvchi, rang-barang.


Today, learning foreign languages is one of the most important issues in our country. Many of our young people are focused on learning English. Because English is the language of today's society, it is impossible to get a good job without knowing it, to go on a trip and communicate without it for its role in the world. This language deserves special respect in each country. By studying it carefully, people will discover a new technological world for themselves and have a lot of interesting

information about this world. At the present stage of the development of pedagogical science, the search for the most effective methods of teaching a foreign language acquires special relevance. The success of the implementation of the learning process largely depends on the use of authentic literature as teaching materials, which fully reflects the language of the speakers and their mentality. Thanks to such materials, students are immersed in the language environment, which facilitates the assimilation of both vocabulary and grammar. Reading authentic literature has a crucial role in teaching foreign languages. Extensive reading imports changes in ordinary classroom activities provided by coursebooks and syllabus. According to Collie and Slater, four main reasons make a language teacher use literature in the classroom. These are valuable, authentic material, cultural enrichment, language enrichment and personal involvement. [1] Teachers should keep in mind that literature is authentic material. Most works of literature were not created for the purpose of teaching a language. Despite this fact, samples of language in real-life contexts (i.e., travel timetables, city plans, forms, advertisements, newspaper or magazine articles) are included in the current school curriculum. Using such samples, learners are exposed to topical language usage in real life. It is good but is not enough for successful mastering language; literature should act as a beneficial complement to such materials. While reading, pupils deal with language intended for native speakers. They become familiar with many different linguistic forms, communicative functions and meanings. Moreover, literature informs pupils how communication takes place in the target country. Though the world of a novel, play, or short story is imaginary, it presents a full and colorful setting in which characters from many social/regional backgrounds can be described. [2] A reader can discover the way people in the target country see the world outside (i.e., their thoughts, feelings, customs, traditions, possessions; what they buy, believe in, fear, enjoy; how they speak and behave in different settings. This colorful created world can quickly help the learner shape a whole society through literature. Literature helps develop the foreign learner's understanding of the country whose language is being learned. Literature provides learners with a wide range of individual lexical or syntactic items. Through reading, pupils become familiar with many features of the written language. The syntax and discourse functions of sentences, the variety of possible structures, and the different ways of connecting ideas, which develop and enrich their writing skills, can be observed by learners. It gives pupils the potential to improve their writing. The syntactic structure of a foreign language can be understood from literary text much easier. This is the main difference between the literary language and the spoken one. By getting to know the formation of paragraphs and chapters and the specific functions of the sentences, learners will acquire eloquence; improve their writing and speaking skills.[3] Students will expand their vocabulary while working with authentic foreign text. They will have to look up new words in the dictionary and new words will awake some cultural references. That is to say, that while reading a text, learners face some cultural aspects of the time and place they are reading about, will learn some peculiarities about history and culture, will get the awareness of traditions and habits of that time.

References:


1. Allen, V. F. (1983). *Techniques in Teaching Vocabulary*. Oxford: Oxford University Press
2. Allwright, R. (1979). *Language learning through communication practice*.
3. In: Brumfit, C.J. and Johnson, K. (eds.) *The Communicative Approach to Language Teaching*. Oxford: Oxford University Press.
4. Barnett, A. M. (1989).
5. Brown, R., Waring, R. and Donkaewbua, S. (2008). Incidental vocabulary acquisition from reading, reading-while-listening, and listening to stories. *Reading in a Foreign Language*, 20, 2, 136-163.
6. Alekseeva, M. V (2001). *Scientific text as polylogue (Monograph)*. Moscow: Signal.
7. Alkebayeva, D.A. (2014). *Pragma-stylistics of the Kazakh language*. Almaty: Kazakh University Baranov, A.N., Kazakevich, E. G. (1991).
8. Parliamentary debates: traditions and innovations, *Modern political language (from ritual to metaphor (pp.63-70)*. Moscow: Znanie. \

7. Political discourse as subject of political philology, Political science. Political discourse: History and modern researches (pp.32-43). Moscow: INION of the Russian Academy of Sciences.



Boltayeva Zulayho Asadovna
 21- umumiy o'rta talim maktabi
 Tasviriy san'at fani o'qituvchisi
 Samarqand viloyati samarqand Shahar

TASVURIY SAN'AT MASHG'ULOTLARIDA INNOVATSION USULLARDAN FOYDALANISH

 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0850-2022-5-8>

ANNOTATSIYA

Tasviriy san'at mashg'ulotlarida yangi innovatsion texnologiyalardan foydalanish ta'lim jarayonida innovatsion iqtisodiyotni yaratish uchun zarur bo'lgan kasblarni egallashga zamin yaratadi. Fanlar integratsiyasi kesishmasida muammolar yechimini yangicha yo'llarni ko'rsatib berishga yordam beradi. Aynan ana shunday innovatsion texnologiyalardan dars mashg'ulotlarida foydalanish o'quvchilarning motivatsiyasini ko'taradi va tasavvuri kengayadi.

Kalit so'zlar: innovatsion texnologiya, bilim, malaka, ko'nikma, tasviriy san'at, pop-art, op-art, tashizm, kinetik, ball-art

Болтаева Зулайхо Асадовна

21-я общеобразовательная средняя школа
 Учитель изобразительного искусства
 Самаркандская область город Самарканд

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ НА ЗАНЯТИЯХ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНЫМ ИСКУССТВОМ

АННОТАЦИЯ

Использование новых инновационных технологий в обучении изобразительному искусству обеспечивает основу для приобретения профессий, необходимых для создания инновационной экономики в образовательном процессе. Он помогает показать новые пути решения проблем на стыке интеграции науки. Использование таких инновационных технологий на уроках повышает мотивацию и расширяет воображение учащихся.

Ключевые слова: инновационные технологии, знания, навыки, умения, изобразительное искусство, поп-арт, оп-арт, транспорт, кинетика, бальный арт

Boltayeva Zulayho Asadovna
 21st General Secondary
 School Fine arts teacher
 Samarkand region Samarkand city

USE OF INNOVATIVE METHODS IN FINE ARTS CLASSES

ABSTRACT

The use of new innovative technologies in the teaching of fine arts provides the basis for acquiring the professions necessary for the creation of an innovative economy in the educational process. It helps to show new ways to solve problems at the intersection of science integration. The use of such innovative technologies in the classroom increases the motivation and broadens the imagination of students.

Keywords: innovative technology, knowledge, skills, abilities, fine arts, pop art, op-art, transportation, kinetics, ball-art.

Tasviriy sanat darslarida o'quvchilar borliqni va san'atni estetik idrok qilish yo'llarini o'zlashtiradi. Bu fan orqali o'quvchilarning fikrlash qobiliyati, ko'rish xotirasi, ijodiy tafakkuri, badiiy didi, estetik hissiyotlari rivojlanib boradi. Bu maqsadlarga to'laqonli erishishda o'qituvchining darsga yondashuvi va mahorati muhim o'rin egallaydi. Chunki tasviriy faoliyat jarayonida shakllanadigan bilim malaka va ko'nikmalar asosida dars jarayoni amalga oshiriladi. Tasviriy san'at fanining maqsad va vazifalaridan kelib chiqib o'quvchilarni ijodkor, komil va mustaqil fikrga ega bo'lgan insonlar bo'lib shakllanishiga yordam beradigan, nafas tarbiyasini qalbiga singdiradigan fanning ta'limiy, tarbiyaviy ahamiyatini oshirishga yordam beradi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning muhim xususiyatlaridan biri bu ta'lim oluvchilarni o'qitish emas ularni mustaqil bilim va malakalarini egallashga o'rgatishdir. San'atda XX asrning ikkinchi yarmida yangi yo'nalishlar paydo bo'ldi. Jumladan, Pop art, Op art, Tashizm, kinetik, Ball-art san'at turlari.

Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarni egallashimiz zarur. Aynan yangi innovatsion texnologiyalardan dars mashg'ulotlarida qo'llanish o'quvchilarning motivatsiyasini ko'taradi va tasavvurini kengaytiradi va kreativ yondashuvi shakllanadi. Unda yangi g'oyalarni ishlab chiqarish, ijodkorlik, tashabbuskorlik shakllanadi. Dars mavzusiga oid multimedia animatsiya grafika deya film va videofilmlar dan foydalanish dars jarayonini yanada qiziqarli bo'lishiga ko'mak beradi.

Ma'lumki ta'lim bu o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorligida faoliyat turi bo'lib, dars orqali o'qituvchi o'z bilimi ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkaziladi. Zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida dars jarayonini tashkil etishda o'qituvchi dastlab: darsning maqsadi, maqsadga erishish yo'llari, o'quv materiallarni taqdim etish usullari, o'qitish metodlari, o'quv topshiriqlarning turlari, muhokamalar uchun savollar, munozara, o'zaro aloqa usullari va kommunikatsiya singari omillarni aniqlab olish lozim bo'ladi.

O'qituvchi zamonaviy kompyuter texnologiya innovatsiya usullardan foydalanish namoyish qilishini qiyin yoki murakkab bo'lgan jarayonlarni modullashtirish va ko'rish imkoniyatini beradi.

Hozirda interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llash an'anaviy ta'limdagi o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatish emas, balki zamonaviy texnologiyalardan foydalanib, ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish, fikrlash, tahlil qilish hatto o'zlari umumiy xulosalarni chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda o'quvchilarning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Xususan o'tilgan mavzuni mustahkamlash qismida "Zinama-zina", "FSMU" tushunchalar tahlili yangi mavzuni tushuntirishda esa "Charxpalak", "Tarmoqlash", "San" texnologiyasi mustaqil ish berilganda "Rezyume", "San" texnologiyasi darsni yakunlash bosqichida "Yelpig'ich" texnologiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq. Tasviriy san'at darslarini qiziqarli mazmunli olib borish uchun o'qituvchi slaydlar va ko'rgazmalardan ham unumli foydalanishi zarur. Jumladan rangtasvir va grafikada manzara ishlash mavzusini tushuntirishda o'qituvchi o'zbek va chet ellik rassomlarning manzara janrida ishlagan asarlarini namuna sifatida ekranda ko'rsatishi mumkin.


Bu esa o'quvchilarni ko'rgan narsalarini hayot bilan bog'lashi hamda darsga qiziqishini oshiradi mustaqil ijodiy fikrlashi yanada rivojlanadi. Tasviriy san'at mashg'ulotlarida STEAM tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika fanlarini uyg'unlikda o'qitish usullarini o'tish

juda yaxshi samara beradi. STEAM texnologiyasi bilimlarni alohida emas o‘zaro mutanosib holda olib borishni ta’minlab beradi. O‘quvchi o‘zida nostandart fikrlash muammoga bir necha yechim topish va ijodkorlik ko‘nikmalarini shakllantiradi. O‘quvchilar kundalik hayotlarida duch keladigan qiyinchiliklarni yengishda zarur bo‘ladigan tanqidiy tafakkur va muammolarni yechish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, o‘quvchilar tez yuradigan mashina modelini yig‘adilar so‘ngra uni sinovdan o‘tkazadilar birinchi sinovdan so‘ng kutilgan natijaga erishilmasa uning sabablari haqida o‘ylaydilar va topadilar. Har bir sinovdan so‘ng ular kamchiliklarni bartaraf etib boradilar. O‘quvchilar ko‘prik qurish, mashina va samolyot modelini ishga tushirishda har safar maqsadiga yaqinlasha boradilar oxirida barcha muammolarni o‘z kuchlari bilan yengib maqsadiga erishadilar.

Xulosa qilib aytganda, an’anaviy o‘qitish usullari bilan taqqoslaganda o‘rta maktabdagi STEAM yondashuv va innovatsion texnologiyalar o‘quvchilarni tajribalar o‘tkazishiga, modellar tuzishga, mustaqil ravishda ijod qilishga, musiqa va filmlar yaratishga, fikrlarini hayot haqiqatiga aylantirishga va yakuniy mashg‘ulotlarni yaratishga undaydi. Ushbu ta’lim yondashuvlari o‘quvchilarni birlashtiradi. Ta’lim jarayonida STEAM ta’lim tizimini qo‘llash natijasida kelajakda innovatsion iqtisodiyotni yaratish uchun zarur bo‘lgan kasblarni egallashga zamin yaratadi.


Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Abdurasulov S. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi -T.; “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2012
2. Kuziyev T., Egamov A., Qanoatov T., Norqobilov A. Rangtasvir 5- 9-sinf “San’at jurnali” nashriyoti, T., 2004
3. “Maktabda tasviriy san’at o‘qitish metodikasi” -T.; “Fan”, 2004
4. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. T.; “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2008
5. Oripov B. Tasviriy san’at va uni o‘qitish metodikasi- T.; “Ilm-ziyo”, 2006.

**Ibragimova Gulsum**

Samarqand davlat universiteti Filologiya fakulteti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi
2-bosqich magistranti

NUROTA TUMANI O‘ZBEK SHEVALARIDA SINONIM SO‘ZLARNING QO‘LLANILISHI

 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0850-2022-5-9>

ANNOTATSIYA.

Ushbu maqolada o‘zbek shevashunosligi sohasida olib borilgan tadqiqot ishlaridan namunalar, erishilgan ilmiy yutuqlar, sheva leksikasiga oid o‘rganilgan lug‘atlardan namunalar ham qayd etildi. Taqdim etilayotgan mazkur ishda Navoiy viloyatining Nurota tumani va ushbu tumanga tutash tumanlar o‘zbek shevalarida uchraydigan sinonim so‘zlar, o‘zbek adabiy tilida uchramaydigan ayrim so‘zlar to‘g‘risida bahs yuritiladi.

Kalit so‘zlar: sinonim, sinonimik qator, sheva, dialektizm, fel, ravish, ot, sifat, modal, mustaqil so‘zlar, yordamchi so‘zlar.

Ибрагимова Гулсум

Самаркандский государственный университет,
филологический факультет, кафедра узбекского
языка и литературы, 2 курс магистра

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СИНОНИМОВ В УЗБЕКСКИХ ДИАЛЕКТАХ НУРАТИНСКОГО РАЙОНА

АННОТАЦИЯ

В данной статье также отмечаются научные достижения узбекского языка в области узбекской диалектологии, а также примеры из изученных словарей диалектной лексики. При этом Нуратинский район Навоийской области и это слова-синонимы, встречающиеся в узбекских диалектах. Обсуждаются некоторые слова, не встречающиеся в узбекском литературном языке.

Ключевые слова: синоним, синонимический ряд, диалект, диалектизм, глагол, форма, существительное, модальное, прилагательное, самостоятельные слова, вспомогательные слова.

Ibragimova Gulsum

Samarkand State University,
Faculty of Philology, Department of Uzbek Language
and Literature, 2nd year master’s degree

USE OF SYNONYMS IN UZBEK DIALECTS OF NURATA DISTRICT

ABSTRACT

This article also notes examples of research achievements in the field of Uzbek dialect, scientific, achievements, dictionaries of dialects. In this work we will discuss some words that are not found in the Uzbek literary language, synonymouse with the Uzbek dialects of Nurata tosoni and adjacent districts of Navoi region.

Keywords: synonym, synonym series, dialect, dialectic, verb, form, noun, adjective, modal, independent words, auxiliary words.

Nurota shevalari leksikasi juda boy bo'lib, juda ko'plab so'zlarni o'z ichiga oladi. Ushbu shevada barcha so'z turkumlariga xos so'zlar uchraydi. Mustaqil, yordamchi, undovlar, taqlidlar, modallar- barchasini kuzatish mumkin. Asosan ot va fel turkumiga oid so'zlarni ko'proq kuzatishimiz mumkin bo'ladi. Ot turkumiga oid o'simliklar nomlari, qushlar nomlari, narsa-buyum nomlari kabi bir qancha turkumlarga bo'lib o'rganamiz. Hamsiya so'zi qo'shni degan ma'noni ifodalaydi. Ushbu so'zga ma'nodosh sifatida qo'nshi, iyakdosh, urug'dash, avuldash kabi so'zlar qo'llaniladi. Masalan o'simliklar nomlari: to'tanboy, podaquyruq, qirqachach (qurtqachoch), o'risdoroq, juzum, shumiy, achchimiya, telpakgul, O'rik, qo'zg'aloq, adrasman, toshchag'an, kakra, siyiremchak, pita, tuytuk, oqtikan, jontoq, ashkadi, torbiz, sabiz, kartishka, pamadr, zamilcha, chapcha, qontovuq, nozboy, so'rg'ich, gerbag va boshqalar. Qushlar nomlari: po'potmoma, olashaqshaq, kirpitikan kasratki, uzunopay, shog'ol.

Bundan tashqari otlarda xarakter ma'nosini ifodalovchi pel so'zi o'rnida minaz, xarakter, adat so'zi ham ishlatiladi. Kulcha nonning bitta turini bildiruvchi ayirmakulcha so'zi o'rnida sakkizkulcha so'zi qo'llaniladi. Bu nonlar o'z nomidan kelib chiqqan holda sakkiz raqami shakliga o'xshaydi, ayirmakulcha so'zi tarkibidagi ayirma so'zi ayrilma so'zida –il qo'shimchasining tushishi natijasida hosil bo'lgan va bir- biridan ayrilmas holda pishiriladigan kulchalarni ifodalaydi. Idishlar turkumiga kiruvchi lagan so'zi o'rnida lali so'zi qo'llaniladi. Ushbu so'zga sinonim sifatida lalitoboq, toshtoboq, oshtoq, oshlali va qisman sinonim sifatida esa kavoblali, gultaboq so'zlari ishlatiladi. Suv va boshqa suyuqliklarni saqlash uchun ishlatiladigan so'z o'rniga bochka so'zi qo'llaniladi va unga sinonim qilib esa gumbur, xum so'zlari qo'llaniladi. Echki va qo'ylarning tezagi o'rnida qiy unga mos sinonim sifatida qumaloq, bahordagi tezaklari esa shotol, shotolmoq va uning maydalangani so'zi o'rnida esa nuri so'zi ishlatiladi. Bunga o'xshash juda ko'plab otlarni misol qilib keltirish mumkin. Ularning barchasi turli tushunchalarni ifodalaydi. Ushbu ro'yxatni o'simliklarning bir turi bo'lgan qushqonmas so'ziga sinonim sifatida lo'ssha so'zi qo'llanilmoqda. Sigir, tuya, ot va qo'y, echkildan olinadigan birinchi sut, og'iz suti o'rnida esa uvz suti sheva so'zi qo'llaniladi. Ushbu so'zga sinonim sifatida gilagay va qotirma so'zlaridan foydalaniladi. Bu so'zlar qisman sinonim bo'lib, uvz suti xom sutni, yuqoridagi so'zlar esa pishirilgan shaklini ifodalaydi. Suv ichish uchun idishni ifodalovchi so'z o'rnida Nurota shevasida kurshka so'zi qo'llaniladi bu so'z ham bir qancha sinonimlariga ega: cho'mich, jamlov, qo'lcha. Inson ta'na a'zolaridan biri bo'lmish dahan so'ziga sinonim tariqasida chintoq so'zi keng qo'llaniladi. To'y marosimlaridan birini bildiruvchi fotiha to'y so'zi o'rnida patya va unga sinonim sifatida potiya, motapichar, pichuv so'zlari qo'llaniladi. Soat so'zi ham ushbu shevada o'z sinonimlariga ega. Masalan, sog'at, sohat, minut kabi. Tomorqa so'zini ifodalash uchun hoyot so'zidan foydalaniladi. Unga sinonim sifatida esa agarat, boq, hovli so'zlari qo'llaniladi. Hayvonlar nomlari bilan bog'liq sheva so'zlar va ularning o'rtasida sinonimlik hodisasi kuzatiladi. Bulardan biri yumronqoziq so'zi o'rnida qo'llaniluvchi zumran va unga sinonim holda zumranqoziq, zumaran so'zlar ishlatiladi. Tipratikan so'zi o'rnida esa kirpi va sinonim ravishda kirpitikan, tikanak so'zlaridan foydalaniladi. Kaltakesak so'zi o'rnida esa kasratki, kesratki so'zlari qo'llaniladi. Ilon so'zi o'rnida esa jilon va unga sinonim holda uzunopay, uzun so'zlaridan foydalaniladi. Uzunopay so'zini bu sheva vakillari odatda kechasi aytishadi. Sababiki, tunda uning nomi aytilsa, uni chqoingan hisoblanadi degan farazlarni aytishadi. O'quv quroli hisoblangan sumka so'zi o'rnida ushbu sheva vakillari so'nka, papka, so'mka so'zlarini ishlatishadi. Bu so'zlar ham sinonimik qatorni hosil qiladi. Yig'ilgan ko'rpa- to'shaklar ustiga yopiladigan buyum so'zini

ifodalash uchun esa bu sheva vakillari jukjopqich, unga sinonim ravishda esa jukjobuv, jaypo'sh, jobuv so'zlari qo'llaniladi. Ko'rpa, ko'rpachalar yig'ilgan joy uchun juk so'zidan foydalanishadi. Tuxum so'zi o'rnida esa tuqum va unga sinonim sifatida mayak so'zidan foydalaniladi. Devor so'zi o'rnida sa duvol va ushbu so'zga sinonim tariqasida devol, duvor so'zlari qo'llaniladi. Bahorda ochiluvchi ko'k ranglik gulni ifodalash uchun ko'kkul(bunda g tovushining o'zidan oldin kelgan k tovushi ta'sirida k tovushiga o'zgarishi kuzatilmoqda) va bu so'zga sinonimik qatornui vujudga keltirib telpakkul, gerbariy, gerbark so'zlari qo'llaniladi. Bahorda o'sadigan, ochiladigan yana bir o'simlikka nisbatan esa Nurota tumanining ayrim hududlarida qirqqachach, ayrim hududlarida esa to'tanboy so'zlari qo'llaniladi. Bu ikki so'z ham qirqdan ziyod bo'g'imlari bor gulag nisbatan ishlatiladi. Bu o'simlik asosan tog'lik yoki tog'ga yaqin hududlarda o'sadi va aynan shu hududlar sheva vakillari orasida ishlatiladi. O'zbeklarning milliy bosh kiyimi hisoblangan do'ppi so'zi ham bu hudud shevalarida turlicha nomlar bilan yuritiladi. Toqiya so'zi asosiy(dominant) so'z hisoblanib, kallapo'sh, chappo'sh so'zlari boshqa sheva vakillarining aralashuvi natijasida paydo bo'lgan, to'ppi so'z esa ushbu sheva vakillarining o'z so'zlari hisoblanadi. Barchamizga ma'lumki, tog'lik xalqlar nos chekishadi. Shuning uchun ham nosga oid ham so'zlar ko'p ushbu sheva vakillari orasida. Masalan, tupkan so'zi nos tuflaydigan idish ma'nosida. Asosi "tup" so'zidan olingan bo'lib(aslida "tuf"), -kan so'z ot yasovchi qo'shimchasi yordamida yasalgan. Bu so'zga sinonim sifatida dachcho'y so'zi ham qo'llaniladi. Asli bu so'z qo'l yuvish uchun maxsus idish dastsho'y(forschadan olingan) bo'lib, bu uning sheva variantidir. Chorvachilikka oid yana bir so'zni qarab ko'ramiz. Ushbu so'z qishda molar yeyishi uchun xashak yig'iladigan joy ma'nosida ishlatiluvchi qashakqona so'zidir. Bu so'zda x tovushi o'rnida q tovushi ishlatilishi holati kuzatilmoqda. Unga sinonim tariqasida qashaktom so'zidan ham keng foydalaniladi. Tumanning shimolidagi qishloqlarda qashakqona so'zidan, janubiy Oqto'v hududidagi qishloqlarda esa qashaktom so'zidan keng foydalaniladi. Nurota tuman o'zbek shevalarida yopinchiq so'zi ma'nosida ham bir nechta so'zlardan foydalanishadi. Bulardan biri jobuv so'zi. Bu so'z ko'plab qo'shma so'zlar tarkibida ham qo'llaniladi. Masalan, beshikjobuv, jukjobuv, yeshakjobuv, otjobuv va boshqalar. Jobuv so'ziga sinonim sifatida esa jopqich so'zidan ham foydalanishadi. Inson ta'na a'zolaridan biri bo'lmish jigar so'ziga sinonim sifatida bo'vur so'zidan foydalanishadi. Uy-ro'zg'or buymlari turkumiga kiruvchi sochiqcha (salfetka) so'zi o'rnida sochaq, moyliq, moyliqa so'zlari sinonim dialektizm tariqasida qo'llaniladi. Joy otlaridan biri bo'lgan oshxona so'zi o'rnida oshqona leksik fonetik dialektizmi, unga sinonim sifatida esa Yangiobod va Yangibino qishloq shevalarida daliz so'zi ishlatiladi. Sovuqbuloq, Suvliq va shu kabi qator qishloqlarda esa daliz so'zi adabiy tildagi dahliz ma'nosini beradi. Yangibino va Yangiobod qishloqlarida daliz so'ziga sinonim holda kavushxona dialektizmidan foydalanishadi.

Endi fel so'z turkumiga oid so'zlarga to'xtaladigan bo'lsak, bu borada ko'rib chiqishimiz, o'rganishimiz lozim bo'lgan so'zlar talaygina. Masalan, tuvmoq so'zi, bu so'z tug'moq so'zini ifodalaydi, 'g tovushi o'rnida v tovushining ishlatilishi natijasida hosil bo'lgan. Ushbu felga sinonim holda ko'z jormoq, bololamoq, dunyaa keltirmaq, ko'paymoq, ko'payishmoq, jengil bo'lmoq, muddatidan oldinroq o'lik bola tug'lsa, bola tashamoq, bola tushirmoq so'zlari qo'llaniladi. Shiydalamoq so'zi- ushbu so'z o'choq mo'rilariga biror nima tiqilib qolganda uni tozalashni ifodalovchi harakatga aytiladi. Bu so'zga sinonim ravishda ishqalamoq, kovlamoq fellari ishlatiladi. Jovmoq feli- ushbu yog'moq felining shevaga oid fonetik variant. Bu felga sinonim sifatida jopmoq, joppoq fellari ishlatiladi, qisman sinonim sifatida esa quymoq, sebalamoq, bir ikki tashamoq, tushmoq, shotirlamoq, shovullamoq so'zlari ishlatiladi. Yomg'ir so'zi o'rnida ishlatiluvchi jomg'ir so'zi jovin, jibor, shibot so'zlari bilan to'liq yoki qisman sinonim sifatida ishlatiladi. Salbiy bo'yoqdorlikka ega bo'lgan qiyringlamoq so'zi ishlatiladi. Ushbu fel qayranglamoq, qiyshanglamoq, satanglanmoq kabi fellar bilan sinonimik qatorni hosil qiladi. Uyqudan uyg'ongandan so'nggi holatni ifodalovchi kerishmoq so'ziga sinonim sifatida Nurota tuman o'zbek shevalarida chemirmoq, chemilmoq, ko'krayini keramoq so'zlari ishlatiladi. Oqsoqlanmoq so'zi o'rnida ishlatiluvchi miyringlamoq feli mavjud. Bu felga sinonim sifatida miyshanglamoq feli ishlatiladi. Yurganda yer tepib yurish ma'nosida esa to'rsillatmoq so'zi qo'llaniladi. Ushbu felga sinonimik qatorni dursillatmoq, tursillatmoq, to'ppillatmoq fellari hosil qiladi. Ezmalanib gapirish ma'nosini ifodalovchi ezmalanmoq so'zi o'rnida ushbu sheva vakillari missillamoq so'zidan bu felga qisman

